

**ZAMONAVIY O‘ZBEK PUBLITSISTIKASIDA SHODMONQUL SALOM
IJODINING O‘RNI**

Choriyeva Mayram Muzaffar qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, magistranti.

mayramchoriyeva454@gmail.com

+998945010198

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.04.2026

Revised: 16.04.2026

Accepted: 17.04.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*Axloqiy-ma‘naviy
qadriyatlar, ijtimoiy-
publitsistik qarashlar,
Shodmonqul
Salom, zamonaviy
publitsistika
Shodmonqul Salom.*

Ushbu maqolada zamonaviy publitsistikada Shodmonqul Salom faoliyatining o‘rni, ijtimoiy-publitsistik qarashlari, esselarida keng ifoda etilgan xalq an‘analarining tarixiy tajribaga asoslanganligi, ularning bugungi kundagi ahamiyati va axloqiy-ma‘naviy qadriyatlarning jamiyat shakllanishidagi o‘rni haqidagi qarashlari nazariy va amaliy tahlil qilinadi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda publitsistika sohasida tub burilish yuz berdi. Bu davrda yangi ovozlar, o‘ziga xos ifoda uslubiga ega bo‘lgan yosh ijodkorlar maydonga chiqdi. Mazkur jarayon publitsistikada ma‘lum ma‘noda mustaqillikning boshlanishi sifatida baholanishi mumkin. Shodmonqul Salom ham ayni shu davrda shakllangan iste‘dodli publitsistlardan biridir.

Tarjimon va publitsist Ibrohim G‘ofurov ta‘biri bilan aytganda: “Shodmonqul ko‘p sargardonliklarni boshidan kechirdi. Jurnalist sifatida, shoir sifatida, ijodkor sifatida bu sargardonliklar uni tarbiyaladi” [1,3].

Zamonaviy publitsistikada Shodmonqul Salom har qanday masalaga xalqona nuqtayi nazardan yondashishi va o'ziga xos fikr bildirishi bilan boshqa publitsistlardan ajralib turadi. U ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy yoki tarbiyaviy-axloqiy mavzularda qalam tebratmasin, barcha holatda xalq donishmandligi va milliy an'analarga tayanib, yetuk va teran fikrlar ilgari suradi.

“Adabiyot va san’at” gazetasi muxbiri Islomjon Qo‘chqorov bilan shoirlikning ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyati haqida bo‘lgan suhbatda u shunday deydi: “Bizning qo‘ng‘irot bobolar aytmoqchi, chavandoz bo‘lsang, qamching yulduzga tegib qaytsin, bo‘lmasa, otdan tush!” [1,33]. Ushbu fikr ijodkorning o‘ziga nisbatan yuqori talab qo‘yishini va ijodda mukammallikka intilishini yaqqol ifodalaydi.

Uning maqolalarida ko‘pchilik tomonidan bugungi kunda yangidek qabul qilinayotgan qadriyatlarning aslida xalq hayotida azaldan mavjud bo‘lib kelgani asosli dalillar bilan yoritiladi. Shu jihatdan, Shodmonqul Salom publitsistikasi axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni qayta anglash hamda ularni zamonaviy talqin etishda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda tilimizda tibbiy madaniyat, ekologik madaniyat, oila madaniyati singari tushunchalar, jumlar paydo bo‘ldi. Aslan bu va bu kabi tushunchalar avvaldan ham xalqimizning botinida, qadriyat va an’analarida bor edi. “Suvga tupurma”, “niholni sindirma”, “Ota-onani hurmat qil” kabi oddiy, sobit aqidalar zamirida katta bir xalqning madaniy daryosi oqib turgan. [1,89]

Shodmonqul Salomning fikricha, jamiyatda hech narsa yangidan paydo bo‘lmaydi. Yangi nom bilan ataladi xolos. Ya’ni bir xalq bugun madaniyatli bo‘lib qolmaydi. Yoki yillar o‘tib bu voqea sodir bo‘lmaydi. Xalqning madaniyati uning o‘zi bilan birga shakllangan bo‘ladi. Publitsist esa bu haqiqatlarni allaqachon anglab yetgan va uni boshqalarga ham yetkazishni o‘zining jamiyat oldidagi vazifasi deb biladi.

Shodmonqul Salomning publitsistikasi nafaqat xalqonaligi, balki tarixiy va ilmiy faktlarga asoslanganligi bilan o‘quvchini shishirib qo‘yadi. Masalan, suv haqidagi esseni olaylik. Eng boshidayoq insonni teran fikrlashga undaydi. Necha yuz yillar avval aytilgan bugungi kunda oddiy ma’lumot sifatida ko‘riladigan faktning aslida unchalik oddiy emasligiga e’tiboringizni qaratadi: “Hakim at-Termiziyning “Alloh olamdagi jamiki narsalarning rangini birlashtirib suvga berdi. Jamiki yaratqning ta’mini bir mavoga to‘plab bu totni ham suvga berdi. Barcha nimarsalarning hidini birlashtirib bu bo‘yni ham suvga berdi” degan mazmunda so‘zlari bor. Hayratki, kimyoviy jihatdan bir qism biz nafas oladigan kislorod va ikki qism D.I. Mendeleyev davriy jadvalidagi ilk unsur bo‘lgan

vodoroddan tarkib topgan suvga zamonaviy anorganik kimyo shunday ta'rif beradi: "Suv – hidsiz, ta'msiz, rangsiz suyuq modda.

Bu go'yoki bir-biriga ziddek tuyuluvchi ikki fikr va ma'lumotlarda te'ran bir uyg'unlik bor. Bu mushtaraklik suvning mo'jizakor xususiyatlarini o'zida yashiradi." [1,201]

Bundan tashqari Shodmonqul Salom o'zining esselarida mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy masalalarga ochiq munosabat bildiradi. U nafaqat o'z fikrini bildiradi balki mushohadalarini turli hayotiy misollar bilan dalillaydi.

U davlatimizning yoshlarga oid davlat siyosati va boqimandalikdan qutulish haqida yozgan essesda "yoshlarga ko'proq imtiyoz berish kerak" deb tovug'i tug'sa ham davlatdan suyunchi so'raydiganlarga qarata "yoshlikning o'zi imtiyoz emasmi?" [1,126] degan savolni o'rtaga tashlaydi. Shu bilan ushbu masalada o'zining ham fuqarolik, ham publitsistik pozitsiyasini bildirib o'tadi.

Ushbu esseda o'zi uchratgan qahramonlar (biri o'zining uchinchi kitobini chiqarish uchun hokim qabuliga yozilmoqchi bo'lgan, Muhammad Yusufdan boshqa shoirni tanimaydigan "shoira". Yana biri uyi-joyi bo'la turib davlatdan yana uy undirish uchun nogironligi haqidagi bir dunyo qog'ozni ko'tarib yurgan 2-guruh nogironi) bilan bo'lgan voqealarni aytib o'tar ekan muallif ular orqali boshqalarga dars berib ketadi.

Shodmonqul Salom publitsist va shoir sifatida, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglagan ijodkor sifatida voqelikka biryoqlama emas, balki har tomonlama yondashadi. Uning maqolalari, esselari hamda turli gazeta muxbirlari bilan bo'lgan suhbatlarida bu jihat yaqqol namoyon bo'ladi.

Qolaversa, publitsistning ifoda usuli va mavzu tanlash mahoratida yana bir narsa alohida e'tiborga loyiq. U ham bo'lsa ildizdan uzilmaganlik. Uning "Alifbodan avval", "Mangu dostonim", "Tomir", "Surxonda to'y", "Tulporlarim" nomli esselari fikrimiz dalili hisoblanadi.

Ushbu esselari orqali o'quvchi aslida kimligini eslab yoki surishtirib qoladi. Shodmonqul Salom publitsistik faoliyatining asl mazmuni va maqsadi ham shunda. U ishontirishga urinmaydi. O'zi ishongan haqiqatlarning to'g'ri ekanligiga isbot keltiradi. Xulosani esa o'quvchining ixtiyoriga tashlaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Shodmonqul Salom publitsistikasi mazmun va mohiyat jihatidan chuqur ijtimoiy, ma'naviy hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi ko'rinadi:

— Shodmonqul Salom publitsistikasi milliy o'zlikni anglash va uni saqlab qolishga xizmat qiladi.



— Uning ijodida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy qarashlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud.

— Publitsist o'quvchini tayyor xulosaga olib kelmaydi, balki mustaqil fikrlashga undaydi.

— Uning asarlarida tanqidiy ruh bilan birga tarbiyaviy maqsad ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

— Shodmonqul Salom jamiyatdagi muammolarni ko'rsatish bilan cheklanmay, ularning ildizini ochib berishga intiladi.

— Publitsist uchun haqiqatni aytish va uni dalillar asosida yoritish muhim prinsip hisoblanadi.

— Uning ijodida xalq og'zaki ijodi, tarixiy meros va ilmiy qarashlar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

— Ijodkorning asosiy maqsadi o'quvchini ongli, mas'uliyatli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Salom Sh. Ko'ngil obidasiga yo'l – Toshkent: “MASHHUR-PRESS” nashriyoti, 2018. – 240 b.

